



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHDA ONA TILI VA TARBIYANING INTEGRATSIYASI

Xo'jamurodova Guljahon

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Jovliyev Jo'rabek Alisher o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashga o'rgatishda ona tili va tarbiya fanlarining integratsiya qilish orqali bugungi kun yoshlarini tarbiyalash ko'rib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, o'quvchi, fikrlash qobiliyati, ona tili, tarbiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается воспитание современной молодежи посредством интеграции родного языка и педагогики в обучении младших школьников самостоятельному мышлению.

Ключевые слова: Начальное образование, учащийся, мыслительные способности, родной язык, образование.

Abstract: This article examines the education of modern youth through the integration of the native language and pedagogy in teaching independent thinking to primary schoolchildren.

Key words: Primary education, student, thinking abilities, native language, education.

Mavzumizni Prezidentimizning oqilona fikrlari bilan boshlashni ma'qul ko'rdik. "Imom Buxoriy va Burxoniddin Marg'inoniy, Iso at Termiziylar, Mahmud Zamaxshariy va Kaffol Shoshiy, Burxoniddin Naqshband va Xo'ja Ahror valiy, Mahmud Xorazmiy va Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy kabi ko'plab daholar nomi jahon sivilizatssiyasi tarixida oltin harflar bilan bitilgan" deya ajdodlarimizni ko'klarga ko'tarib tarif bergan edi yuurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev.[1] Bunday daholar o'zbek diyorida o'nlab emas balki yuzlab yetishib chiqqan desak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan, dissertatsiyamiz mavzusi ham prezidentimiz fikrlariga mos va xos desak xato bo'lmas kerak. Chunki tariximizni bilmasdan, ijodkorlar merosini o'rganmasdan turib kelajak haqida o'ylamasak ham bo'ladi. Mutafakkirlar ijodi orqali yosh avlodni ajdodlarimiz kabi olim, notiq, o'z fikriga qatiyatli qilib tarbiyalash biz pedagoglarning burchimizdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar bugungi kun talablari asosida tarbiyalash boshlang'ich sinf o'qituvchilarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun olib



borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalardagi keng ko'lamli ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish, shuningdek, mustaqil fikr egasi, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda alohida ahamiyat kasb etmokda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Farzandlarimizni mustakil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan mustakil xayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala xisoblanadi"- degan fikrlari har birimizdan katta mas'uliyatni talab qiladi. Taraqqiyot shiddat bilan hayot tarzimizga kirib kelayotgan bir davrda bir-biridan murakkab texnika va texnologiyalar yoshlarimiz ongu shuuridan mustahkam o'rin egallamoqda. Bunday vaziyatda o'qituvchiga biror yangi bilim berish, uni o'qish va izlanishga o'rgatish uchun o'qituvchidan juda katta mahorat talab qilinishi bor gap".[2]

Xalqimizning ajoyib udumlari, an'analari bexisob. Ammo ular orasida bir an'ana borki, u xaqida har qancha so'zlasang shunchalik oz. Bu - kitob bilan bog'liq an'ana. Kitob yaqin yillarda paydo bo'lgan emas. Kitob-bir necha ming yillar avval paydo bo'lgan va qadim-qadimdan muqaddas sanalib kelingan. Kitob-insonning eng yaqin do'sti va maslahatgo'yi hisoblanadi. Umuman olganda kitob uni yaratgan ma'naviy xalkning bebaxo boyligidir. Kitob hayot darsligi, barcha bilimlar asosi xalq va elatlar tarixidan xabar beruvchi asosiy manba sifatida qaraladi. O'tmishdan hikoya qiluvchi-tarix, bugunni aks ettiruvchi ko'zgu, ertangi kunni aytib beruvchi mo'jiza kitobdir. Kitob ko'rmagan odam nodondir, kitob ko'rmagan uy qorong'u- zimistondir. Mavzuning nuqtayi nazaridan bu fikrlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bugungi kunda yoshlarimiz kitobga mehri sezilarli darajada susayib bormokda. Bizga ma'lumki hozirgi kunda texnologiyalar rivojlangan bir davrda o'quvchilarni kitobga qiziqtirish murakkab masalalardan biriga aylanib bormoqda. Buning sababini. Shu borada shuni ta'kidlab o'tmok joizki, yoshlarimizni, ayniqsa jajji bolajonlarimizning o'qishga bo'lgan mehrini sezilarli darajada o'zgarib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buyuk yurt allomalari, ikkinchi kitob Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti. 2018 y. 3-b
2. Mirziyoyev Sh.M "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo ztamiz". –Toshkent: "O'zbekiston NMIU, 2016-56 6.
3. Babamuratov, E., Ulmashon, D., & Zhurabek, Z. (2023). METHODS OF IDEOLOGICAL WORK FOR YOUTH WITH IDEOLOGICAL DEPRESSION. World Bulletin of Social Sciences, 27, 136-143.
4. Jovliev, J. (2023). EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATIONAL AND GENERAL HUMAN VALUESTECHNOLOGY. Open Access Repository, 10(10), 51-55.